

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



"TASDIQLAYMAN"

A.K.Kirgizbayev

2023 yil 29 08

Ro'yxatga olindi: № BD-60111100-2.04

2023 yil 28 08

O'ZBEKISTON TOPONIMIKASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111100 – Tarix

Toshkent – 2023

Fan/modul kodi O'ZBTPZ204		O'quv yili 2023-2024	Semestr 3	Kreditlar 4	
Fan/modul turi tanlov		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
		O'zbekiston toponoimikasi	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - O'zbekiston tarixida muhim ahamiyat kasb etuvchi toponimlar va ularning tarixiy qiymatini, O'zbekistonning turli mintaqalarida ajdodlar tilida yaratilgan barcha turkum tarixiy toponimlarning o'ziga xos ma'lum shaklda ifodalanib, muayyan ma'noni anglatishi, ko'p qatlamli o'ziga xos qadimiy toponimlar majmuasi qaror topganligi kabi masalalarga oid bo'lgan zamon talabi darajasidagi chuqur bilimlarni berish.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga tarixiy toponimlarning kelib chiqishi haqidagi haqidagi bilimlarga ega bo'lish, toponimlarning yangi nazariyalarni tahlil etish, tarixning harakatlantiruvchi omillarini ko'rsatib berish, O'zbekistonning tarixiy toponimlari fanining asosiy yo'nalishlarini tahlil va tadqiq qilish malakasini hosil qilish, toponimlarning kelib chiqish omillarini tahlil qilish, ularga oid birlamchi asl manbalar bilan ishlash kabi bilimlarni o'rgatishga qaratilgan vazifalar bajariladi.</p> <p style="text-align: center;">II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-modul. Toponimika fani asoslari</p> <p>1-mavzu. Toponimika tushunchasi va uning mohiyati.</p> <p>Toponimika, tarixiy toponimika tushunchalari va ularning mohiyati. O'zbekistonda tarixiy toponimikaga oid tadqiqotlar. Toponimikaning tilshunoslik, tarix, geografiya, arxeologiya va boshqa fanlarga aloqadorligi va fanning muhim masalalari.</p> <p>2-mavzu. "O'zbekiston toponimlarining o'rganilishi".</p> <p>Kishilar odatda o'zlari uchun tushunarsiz bo'lgan nomlardan ma'no axtara boshlaydilar va o'z tillariga moslashtirib talaffuz qilishga intiladi. Xalq etimologiyasi, aniqrog'i soxta etimologiya shu yo'sinda paydo bo'ladi va shu tariqa rivoyatlar ham to'qiladi.</p> <p>Xorazm viloyatidagi tuman markazi Hazorasp juda qadimiy shahar bo'lgan. U X-XI asrlardagi arab geograflari Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida «mustahkam qal'a» deb tilga olingan.</p> <p>Qo'qon shahri X asrda bitilgan «Hudud ul-olam» qo'lyozmasida, arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Ho'kan (Xuvoqand), Ho'kand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan.</p>				

«Boburnoma»da Xo'qon viloyati tilga olingan. Hozirgi Qo'qon shahri tarixiy Xo'qand o'rnida XVIII asrda o'zbeklarningning urug'i boshlig'i Shohruh tomonidan barpo etilgan. Akademik V.V.Bartoldning fikricha, shaharning adabiy nuqtai nazardan to'g'ri shakli Xo'kand bo'lib, Qo'qon jonli tilda talaffuz etilishidir.

Xorazm toponimi haqida ham rivoyatlar bor. Chunonchi, o'rta asr arab olimlaridan Muqaddasiy va Yoqut Hamaviy asarlarida bu haqda shunday rivoyat keltirilgan. Podsho g'azabnok bo'lib, o'zining bir qancha bebosh fuqarolarini kimsasiz uzoq joyga badarg'a qilishni buyuradi. Lekin bu yerda o'tin va go'sht (ya'ni Amudaryoda baliq) ko'p bo'lganidan ular omon qoladilar. Musofirlar bu o'lkani obod qilib, Xorazm deb atadilar (xovar - go'sht, azm - o'tin).

2-modul. O'zbekistonning tarixiy toponimikasi

3-mavzu. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tarixiy toponimikasi

Qashqadaryo – daryoning nomidan olingan. U Qarshi vohasini suv bilan ta'minlaydi. Daryo qadimgi vaqtda Koshkirud deb atalgan. Ayrim tadqiqotchilarning (masalan, V. V. Bartoldning) fikricha, Qashqadaryo Keshkirudning fonetik o'zgargan variantidir.

Ba'zi olimlar toponimning asosini «qashqa» so'zi tashkil etadi, qashqa «qashmoq, qurib qolmoq» degan ma'noni bildirishini aytadi (A.Ishaev). H.Hasanov daryoning tabiiy xususiyatida ham qashqalik bor, Qarshidan keyin daryoning suvi kamayib o'zani olachalpoq «qashqa holiga keladi», deb yozadi. S.Qoraev «Qashqa» so'zining bir necha ma'nosini keltiradi. Etnik nom: tiniq, tez oqar, yoqasida o'simlik o'smaydigan yalang, yolgiz tepa va hokazo. Daryo nomidan viloyat nomi vujudga kelgan, hozir ham shu nom bilan yuritiladi.

Surxondaryo – tojik tilidan olingan bo'lib, «surx» – qizil, ya'ni Qizil daryo demakdir. Surxondaryo bosh oladigan tog' tizmalari, daralar, tog jinslarida qizil ranglar mavjud. Suv bu jinslarni o'zi bilan oqizib kelganligi sababli qizil tusli tuyuladi. Shuning uchun yerli xalk, – qizil daryoni tojik tilida «Surxondaryo» deb atashgan.

4-mavzu. Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlari tarixiy toponimikasi

Buxoro – qadimiy, tarixiy, yodgorliklarga boy shahar. Narshaxiy Buxoroning Numijkat, Bumiskat, Madinat us – Sufriya, ya'ni «Mis shahar», Madinat ut – tujjor, ya'ni «Savdogarlar shahri» degan nomlari borligini aytadi: «Buxoro, deb davom etadi tarixchi, – degan nom u nomlarning hammasidan ma'sulroqdir. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Buxoroning Foxira deyilishi dinga qorilgan afsona, albatta, ikkinchidan, arab grafikasi oqibatidir. Buxoro nomi «Abdullanoma» va boshqa bir qator asarlarda «Vixara» tarzida keltirilib, otashgtarastlar ibodat qiladigan joy ta'riflanadi. Uning etimologiyasi

ham bor.

Samarqandning bunyodga kelgan vaqti va «Samarqand» degan soʻzning kelib chiqishi hali aniqlangan emas. Sharq mualliflari «Samarqand» soʻzining birinchi qismi, yaʼni «Samar» soʻzi shu shaxarga asos solgan yoki shaxarni bosib olgan kishining ismi bilan bogʻliq bir qator sunʼiy taʼriflarni taklif etdilar. Birok, baʼzi olimlar tarixda bunday kishi boʻlmagan deb hisoblaydilar. Soʻzning ikkinchi qismi «kent» shahar nomi maʼnosini beradi. Bu soʻzning kant, kan, gan, gon, qand kabi shakllari ham bulib, bu soʻzlar ham shahar degan maʼnoni anglatadi. Baʼzi Yevropa olimlari bu nom qadimdan qolgan sanskritga yaqin, yaʼni «yag» yigʻilish soʻzidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik davr mualliflarining asarlarida shahar «Marokanda» deb atalgan.

5-mavzu. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tarixiy toponimikasi

Joy nomlari muayyan xududda ajralgan holda emas, balki oʻsha hudud bilan, u yerdagi tabiiy xamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bogʻliq xolda oʻrganiladi. Kelajakda iqtisodiyot va madaniyatning oʻsishi, xalqaro aloqalarning rivojlanishi, yangi yerlarning oʻzlashtirishi xalqlar xayotida ularning roli va ahamiyatini yanada oshiradi. Jizzax viloyatning maʼmuriy-xududiy boʻlinishi kesimida joy nomlari tahlil qilinganda tumanlar toponimiyasining shakllanishida xam leksik, xam semantik jihatdan muayyan tafovutlar borligi aniqlandi. Masalan, Zomin, Yangiobod, Baxmal tumanlari axoli punktlari nomlari tarkibida turkiy toponimlar bilan birga qadimiy sugʻdiy va eroniy substrat toponimlar xam uchraydi. Gʻallaorol, Jizzax va Forish tumanlari toponimiyasi tarkibida etnotoponimlar va joyning geografik xususiyatiga qarab nomlangan geografik obʼektlar koʻprok. Viloyatning shimoliy choʻl mintaqasidagi Paxtakor, Doʻstlik, Zafarobod, Arnasoy, Mirzachoʻl, Zarbdor tumanlarining oykonimiyasi tarkibida antroponimlar va agrotoponimlar koʻpchilikni tashkil etadi.

6-mavzu. Xorazm viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasi tarixiy toponimikasi

Har bir joy nomining oʻz tarixi bor. Ular xalq hayotining turli tomonlarini oʻzlarida aks ettiradilar. Nomlar koʻpincha shu hududda yashagan maʼlum xalq hayoti, yashash sharoiti bilan bogʻliq holda sodir boʻladi. Xorazm nomini tekshirgan S.P.Tolstov toponim shu hududda yashagan xvarri qabilasining nomi bilan bogʻliqligini, yaʼni xvarri — yer, «xvarri qabilasining yeri» ekanligini aytadi. Kadimda Xorazm nomi ostida Amudaryoning quyi oqimi tushunilgan. Bu voha Oʻrta Osiyodagi eng koʻhna oʻlkalardan biridir. Xorazm haqidagi dastlabki maʼlumotlarni «Avesto»da uchratamiz. Bu nom yunonlarda Xorazmiya yoki «Uvarezmata», «Avesto»da Gairizao shaklida uchraydi. Arab mualliflari — Xuvorezm, Xitoy manbalari Xoli si mi kiya deb tilga oladilar. Bu soʻzning kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor. Ulardan baʼzilarida Xorazm «pasttekislik», «yomon yer», «xur zamin», «quyoshli yer», «hosildor yer», «boquvchi yer» shaklida izoxlanadi. Umuman hamma

tadqiqotchilar nomning ikkinchi qismi «zem», «zm»ni «er», «zamin» so'zi bilan bog'laydi, S.P.Tolstov Xorazm so'zini Xvari yoki Hurrit etnonimi bilan aloqador deb hisoblab, «Xvarri yeri» shaklida izohlaydi. Akademik Ya. G'ulomov o'zining «Xorazmning sug'oriliwi tarixi» nomli kapital asarida S.P.Tolstovning yuqoridagi fikrini to'la ma'qullaydi.

Toponimlar xalq tili va tarixi mahsulidir. Qoraqalpoq xalqiling etnogenezi Sirdaryo va Orol bo'ylarining delta va cho'l hududlarida yashagan qabilalar bilan bog'liq. Qoraqalpoqlarning aksari qismi XVII asrdan XVIII asr o'rtalarigacha Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan va XVIII asrning ikkinchi yarmida Sirdaryo deltasiga ko'chib o'tgan. 1811 yilda qoraqalpoqlar Xiva xonligiga tobe bo'lib, Amudaryo deltasiga ko'chirilgan. Shu sabab Qoraqalpog'istonning qoraqalpoqcha nomlarini ancha yosh toponimlar deyish mumkin.

7-mavzu. "Farg'ona, Andijon va Namangan viloyati tarixiy toponimikasi"

Farg'ona — antik davr yunon olimlari bu viloyatdan deyarli bexabar qolganlar. Makedoniyalik Iskandarning Xujandgacha kelgani aniq. Ammo undan sharqqa, Farg'onaning ichiga o'ta olmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, yunoncha kitoblarda qadimiy Farg'onaning tavsifi yo'q. U tomonda «Yaksart orqasida» allaqanday o'troq axoli borligigina qayd etilgan, xolos. Faqat ilk o'rta asr adabiyotidagina Farg'ona nomi qayd etilgan.

Andijon — O'zbekistonning xushmanzara va ko'hna shaharlaridan biri. U Farg'ona vodiysining janubi-sharqida joylashgan. Shahar nomining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha fikrlar bor. Bir afsonada aytilishicha, shaharning nomi Afrosiyob noibining qizi Andijon nomidan kelib chiqqan deyiladi. Boshqa bir rivoyatda bu so'zning birinchi qismi «Andi» — shaharga asos solgan kishining nomi, ikkinchi — «jon» qismi esa jon degan ma'noni anglatadi, deyiladi. Birovlar qachonlardir bu yerlarni «andi — hind» lar ishg'ol qilganlar, bu hindlar makoni deydilar. Yana bir gurux, kishilar esa «Andi» shaharga asos soluvchi, «jon» esa baxsh etmoq demakdir, deyishadi. Yana bir gurux, kishilar karvon yulida ketayotganda qaroqchilar xujum qilib «O'nta jonni» o'ldirganlar. Andijon so'zi o'nta jon so'zining buzilganligidan kelib chiqqan, deb ta'kidlaydilar.

Namangan — Farg'ona vodiysining go'zal shaharlaridan biri. Namangansoy, Yangiariq va Shimoliy Farg'ona kanalidan suv ichadi. Namangan haqidagi dastlabki ma'lumotlar Zahiriddin Muxammad Boburning «Boburnoma» kitobida tilga olinadi. Namangan qishlog'i tuz koniga yaqinligidan «Namak kon» deb atalgan. Keyinchalik bu nom o'zgarib Namangan bo'lib ketgan.

8-mavzu. Toshkent viloyati va Toshkent shahri tarixiy toponimikasi

Toshkent mamlakatimiz hayotida katta o'rta tutadi. Avvalambor, u

Vatanimizning poytaxti, ulkan iqtisodiy, siyosiy, madaniy markaz. Poytaxtimizni turlicha ulug'laydilar: «Toshkent - non shahri», «Toshkent - tinchlik shahri», «Toshkent - bog'-rog'lar shahri», «Toshkent - do'stlik shahri», «Toshkent - jasorat shahri» va hokazo.

Poytaxtimiz ko'chalar soni jihatidan respublikamiz shaharlari orasida birinchi o'rinda turadi. Toshkentda 3000 ga yaqin katta-kichik ko'cha bor. Toshkent toponimini ko'p adabiyotlarda «Tosh shahar» deb izohlanadi. Shu so'zda ma'lum ma'noda shahar tarixi ham o'z aksini topgan. Shahar hududida tosh asriga oid buyumlar uchragan. Toshkentdagi qabristonlardan birida topilgan haftjo'sh (bronza) ko'zgular, turli mamlakatlarning tangalari shaharning ko'pming yillik tarixidan darak beradi.

Toshkent haqidagi birinchi tarixiy ma'lumotlar milodning dastlabki asrlariga to'g'ri keladi. Chunonchi, shaharning geografik o'rniga oid ma'lumotlar yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning «Geografiyadan qo'llanma» asarida uchraydi. Ptolemey bu asarida yer sharining obod qismini, ya'ni oykumenani 26 xaritada tasvirlagan. Shu xaritalardan birida O'rta Osiyo va uning atrofidagi o'lkalar tasvirlangan. Unda Xitoyga boradigan savdo yo'li ustida, aniqrog'i Yaksart (Sirdaryo) havzasining sharqida Terri Lapideya degan joy ko'rsatilgan. Olimlar ana shu yunoncha nomni «Tosh qo'rg'on» deb tarjima qilib, Toshkentga nisbat berishgan.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu. Toponimika tushunchasi va uning mohiyati.
- 2-mavzu. «O'zbekiston toponimlarining o'rganilishi».
- 3-mavzu. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tarixiy toponimikasi
- 4-mavzu. Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlari tarixiy toponimikasi
- 5-mavzu. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tarixiy toponimikasi
- 6-mavzu. Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixiy toponimikasi
- 7-mavzu. «Farg'ona, Andijon va Namangan viloyati tarixiy toponimikasi
- 8-mavzu. Toshkent viloyati va Toshkent shahri tarixiy toponimikasi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

- masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- 1-mavzu. Toponimika tushunchasi va uning mohiyati.
- 2-mavzu. "O'zbekiston toponimlarining o'rganilishi".
- 3-mavzu. Qashqadaryo viloyati tarixiy toponimikasi
- 4-mavzu. Surxondaryo viloyati tarixiy toponimikasi
- 5-mavzu. Buxoro viloyati tarixiy toponimikasi
- 6-mavzu. Samarqand viloyati tarixiy toponimikasi
- 7-mavzu. Navoiy viloyati tarixiy toponimikasi
- 8-mavzu. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tarixiy toponimikasi
- 9-mavzu. Xorazm viloyati tarixiy toponimikasi
- 10-mavzu. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixiy toponimikasi
- 11-mavzu. Farg'ona viloyati tarixiy toponimikasi
- 12-mavzu. Andijon viloyati tarixiy toponimikasi
- 13-mavzu. Namangan viloyati tarixiy toponimikasi
- 14-mavzu. Toshkent viloyati tarixiy toponimikasi
- 15-mavzu. Toshkent shahri tarixiy toponimikasi

3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- O'zbekiston toponimikasi va joy nomlarining kelib chiqish tarixi haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi; (bilim)*
- Toponimika, tarixiy toponimika, O'zbekistonning tarixiy toponimikasi kabi tarixiy tushunchalar, tarixiy jarayonlarning xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish *ko'nikmalariga ega bo'lishi; (ko'nikma)*
- talaba tarixiy voqea va hodisalarni, rivojlanish jarayonlarini manba va boshqa adabiyotlar yordamida tahlil qilish usullarini qo'llash, tarixiy rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish *malakasiga ega bo'lishi kerak.*

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruza;
- keys-stadi;
- individual loyihalar;
- taqdimotlar qilish;
- guruhlarda ishlash;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish;
- "BBB", "Tarozi", "SWOT-tahlil", "Sinkveyn", "FSMU", o'yin, musobaqa.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma (test) topshiriqlarni bajarishi zarur.

VIII. Asosiy adabiyotlar:

1. Низомиддий Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Сағдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т.: Академия, 2000.
3. Қораев С.. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. -Т., 2005.
4. Қораев С. Топономика. – Т., 2006. – 320 б.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ. Т.: «Ўзбекистон» 2016.
9. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарк, 1998.
10. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
11. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т., 2000.
12. “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. Т.: Фан, 2001.
13. Абдураззоқ Самарқандий. Матла ус-саъдайн ва мажмуа ул баҳрайн. Т. «Фан», 2008.
14. Абу Джафар Мухаммад ат-Табарий История ат-Табарий Т., «Фан», 1987.
15. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри.-Т.: 1993.
16. Абу Райхон Беруний «Ал-Асар ал-Боқия» (Ўтган авлодлардан қолган ёдгорликлар). Асарлар I ж. Т.: Фан, 1957.
17. Абу Райхон Беруний «Қонун-Маъсудий». Т.: Фан, 1973.
18. Абу Райхон Беруний қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланма асарлар I жилд, Т., «Фан», 1968.
19. Абу Тохир Хожа «Самария», Наршахий. Бухоро тарихи, Баёний. Шажарайи Хоразмшохий; Ибрат. Фарғона тарихи. Т.: Камалак, 1991.
20. Аскарлов А. Энг қадимги шаҳар. Т., 2001.
21. Ахмедов Б.А. Ўзбек улуси. Т., “Мерос”, 1991.
22. Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т., «Ўқитувчи», 2001.

23. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи Муллозода / Сўз боши, форс тилидан таржима, изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, Б.Аминов. – Тошкент, Янги аср авлоди. 2009.
24. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё.- Т.: 1997.
25. Геродот История. В девяти книгах. М.; 2004.
26. Зиёдов Ш. Ал-Мотурудий ҳаёти ва мероси.-Т.: 2000
27. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-аърих. – Тошкент, Ўзбекистон. 2006.
28. Ибн Арабшоҳ. «Амир Темур тарихи». Т. «Меҳнат» 1992.
29. Камалиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Т., 2006.
30. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида: терма парчалар/ Тузувчи ва тарж. Зоҳир Аълам. – Т., 2008
31. Лившиц В. Авеста - исторический источник. “Авесто” китоби. Т.: Фан, 2001.
32. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Т., 2008.
33. Маҳмудов Т. «Авесто» ҳақида. Т. «Шарқ», 2000.
34. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Т., “Ғофур ғулом”, 1989.
35. Муҳаммадиёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. / Форс тилидан таржима, изоҳлар муаллифлари И. Бекжонов, Д. Сангирова. – Тошкент, Янги аср авлоди. 2009.
36. Насавий. Сийрат ас-Султон Жалолиддин Мангбурни.-Т.: 1999.
37. Низомиддий Шомий. «Зафарнома”. Т.: Ўзбекистон, 1996.
38. Низомулмулк. Сиёсатнома. Т., «Адолат», 1997.
39. Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи.-Т.: 1994.
40. Ртвеладзе Э.В. Ўрта Осиёнинг қадимги тангалари. Т., 1987.
41. Ртвеладзе Э.В., Сағдуллаев А.С. Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. Т., 2007.
42. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т., 2001.
43. Сағдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Т., 1996.
44. Сағдуллаев А.С. Огненные стрелы. Т., 1993.
45. Сағдуллаев А.С. Поход Александра Македонского в Согдиану. – Т., 2007.
46. Согдийские документы с горы Муг, юридические документы и письма. Перевод и комментарии Лившица. Выпуск II. М., 1962.
47. Сулаймонова Ф. Шарқ ва ғарб. Т., “ФАН”, 1991.
48. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Т. 2000.
49. Темур тузуклари.-Т.: 1991, 1996.
50. Шарафиддин Али Яздий. «Зафарнома». Т. «Шарқ». 1997.
51. Шифман И.М. Александр Македонский. Л. 1998.
52. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. Т., 1990.

53. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т., 2001.
 54. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг.-Т., Юлдузча, 1990.
 55. "Авесто" ва унинг инсоният таракқиётидаги ўрни. – Т.: Фан, 2001.
 56. Согдийские документы с гори Муг, юридическiе документы и письма. Перевод и комментарии Лившица. Выпуск 2. – М., 1962.
 57. Қораев С. Қорақолпоғистон АССР топонимлари // Мехнат ва турмуш. – Тошкент, –№9. – Б. 12-13.
 58. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Т.: Фан, 1996.
 59. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-аърих. – Тошкент, Ўзбекистон. 2006.
 60. Абдураззоқ Самарқандий. Матла ус-саъдайн ва мажмуа ул баҳрайн. Т. «Фан», 2008.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
4. www.tdpu.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.ziyonet.uz
7. www.edu.uz

7.	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas’ul va dastur muallifi: Ilhomov Z.A. - Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi
9.	Такризчилар: Djuraev I.N. – Guliston davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik” kafedrasi dotsenti, PhD Jumaeva Sh.B. - ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, tffd (PhD)